



## FUQAROLIK SUD ISHLARI YURITILADIGAN TIL PRINSIPINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Yo'Ichiboyeva Gulyoraxon Davlatjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs

talabasi, Tel: +99850 506-46-60

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522346>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 4-noyabr 2025 yil

### KEY WORDS

*fuqarolik sudi, odil sudlov, sudya, til prinsipi, tarjimon.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritiladigan til prinsipi tushunchasi, ahamiyati, mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, bu boradagi milliy qonun hujjatlari normalari tahlil etilgan.*

Sud ishlarini yuritish tili suddagi muloqotni yuritishning eng muhim vositasidir. Fuqarolik sud ishlarida sud ishtirokchilari sudya bilan bir tilda so'zlashishi nafaqat qonuniy ahamiyatga ega, yana dalillar va ularni tekshirish, baholash, sudga nisbatan ishonch va hurmat, qonunlarni o'rganish va ularga hurmatni shakllantirish kabi ham huquqiy, ham huquqiy-madaniy jarayon uchun ham zarurdir. Fuqarolik sud ishlari yuritiladigan til prinsipining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari avvalo O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 139-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yoxud qonunga muvofiq boshqa tilda olib boriladi. Sud ishlarini olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudqa qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud jarayonidagi olib boriladigan tilning ahamiyati muhim bo'lganligi sababli, bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. M. Tiersmaning o'zining "Legal Language" (1999) asarida, sud tili aniq, tushunarli va rasmiy bo'lishi va ular bir-birini to'ldirib turishi kerakligi haqida aytib o'tilgan. M. Solan va M. Tiersmaning "The Oxford Handbook of Language and Law" kitobida esa shunday ta'kidlanadi: "Sudda ishlatiladigan til har bir ishtirokchi – sudya, advokat, guvoh va jamoatchi uchun teng darajada tushunarli bo'lishi shart." Bundan tashqari, "The Guide for Interpreters and Staff of South Yorkshire Police" qo'llanmada tarjimon uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar keltirib o'tilgan. Unga ko'ra tarjimon turli xil sharoitlarda aniq tarjima qila olishi uchun yuqori darajadagi til bilimi va keng ko'lamli professional ko'nikmalarga ega bo'lishi, bu esa qanchalik murakkabli ekanligi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Shu bilan birgalikda, ushbu prinsip yana fuqarolik sud ishlarini protsessual tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida ham o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 11-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi.

Sud ishlarini yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga ishga taalluqli materiallar bilan o'z ona tilida to'liq tanishib chiqish, sudda ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda so'zlash, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, arz bilan murojaat etish, iltimosnomalar taqdim etish,

shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan tartibda tarjimonning xizmatlaridan foydalanish huquqi ta'minlanadi.

Ishda ishtirok etuvchi va sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxs ishdagi sud hujjatlari berilishini so'rab yozma ariza bilan murojaat etgan taqdirda, unga sud hujjatlari uning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi.

Mazkur prinsip o'z navbatida bir qator qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Xususan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuning

13-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish huquqi va sudda ona tilida yoki ular biladigan boshqa tilda so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Konvensiyaning 17-moddasida ham belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi yangi tahrirdagi qonunning 11-moddasiga ko'ra sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud ishlarini yuritiladigan til prinsipi sud jarayonida taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nafaqat bir-birlarini yaxshiroq tushunishlari, balki bu jarayonda o'zlarining huquq va manfaatlarini amalga oshirish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishlarida muhim hisoblanadi.

Mazkur prinsipning yana bir xususiyati shundaki, ishda ishtirok etuvchi va sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxs ishdagi sud hujjatlari berilishini so'rab yozma ariza bilan murojaat etgan taqdirda, unga sud hujjatlari uning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi. Bu qoida sud ishlarini yuritiladigan tilni bilmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning protsessual kafolati hisoblanadi. Shuningdek, sud hujjatlarini ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshirish sudning zimmasiga yuklatiladi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik sud ishlari yuritiladigan til prinsipi sud jarayonida taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nafaqat bir-birlarini yaxshiroq tushunishlari, balki bu jarayonda o'zlarining huquq va manfaatlarini amalga oshirish uchun teng protsessual imkoniyatlarga ega bo'lishlarini amalda ta'minlaydi. Taniqli huquqshunos olim professor A.F.Saidov ta'kidlaganidek, "Yuridik til ko'p ming yillik taraqqiyot va ko'p avlodlar tajribasi mahsuli" huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyatlar, huquqiy ma'daniyatning ajralmas qismidir". Yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun tili gap qurilishi jihatdan tushunilishi yengil va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan, talablarga javob beradigan bo'lishi shart.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021 y., 03/21/703/0723-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 257-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 51-son, 514-modda; 2010 y., 37-son, 313-modda; 2011 y., 41-son, 449-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.